




# YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ

DAVRIYLIGI:  
2018-2023



D.I. MENDELEEVNING  
KIMYOVIY ELEMENTLAR  
DAVRIY JADVALI



Относительная  
атомная масса  
(атомный вес)

	Actinoids	Periodic Table of Elements																		1		2		3		4		5		6		7		8		9		10		11		12		13		14		15		16		17		18		19		20		21		22		23		24		25		26		27		28		29		30		31		32		33		34		35		36		37		38		39		40		41		42		43		44		45		46		47		48		49		50		51		52		53		54		55		56		57		58		59		60		61		62		63		64		65		66		67		68		69		70		71		72		73		74		75		76		77		78		79		80		81		82		83		84		85		86		87		88		89		90		91		92		93		94		95		96		97		98		99		100		101		102		103	
Cr	Хром	Mn	Марганец	Fe	Железо	Co	Собальт	Ni	Николь	Cu	Сириум	Zn	Цинк	Ag	Аргентум	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Au	Золото	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Os	Оsmий	Ir	Иридий	Re	Рений	W	Вольфрам	Hs	Хасий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pb	Свинец	Bi	Бисмут	At	Астат	Ts	Технеций	Yd	Иодий	Pm	Прометий	Sm	Самарий	Eu	Европий	Gd	Гадолиний	Tb	Тербий	Dy	Диспрозий	Ho	Нолмий	Er	Эрбий	Tm	Тулый	Yb	Иттербий	L	Лютесий	Jr	Юраний	Np	Нептуний	Pu	Плутоний	Am	Америций	Cm	Кюрий	Bk	Берклий	Cf	Калифорний	Es	Энштейний	Fm	Фермий	Md	Мендельевий	No	Нобелий	Lr	Лауренций																																																																																																																		
52.000	54.938	55.847	56.751	57.911	58.931	59.904	60.904	61.941	62.925	63.921	64.927	65.930	66.938	67.939	68.934	69.938	70.937	71.939	72.938	73.939	74.940	75.941	76.942	77.943	78.944	79.945	80.946	81.947	82.948	83.949	84.950	85.951	86.952	87.953	88.954	89.955	90.956	91.957	92.958	93.959	94.960	95.961	96.962	97.963	98.964	99.965	100.966	101.967	102.968	103.969																																																																																																																																																																															

TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR: 1, 2-UY.

+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQT.uz  
WWW.CONFERENCES.UZ



FEVRAL  
№49

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
9-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-9**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 49-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 30 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Xolmurodov Baxrom Maxmatkarim o‘g‘li</b>	
BUDJET TASHKIOTLARI MABLAG‘LARI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH .....	7
<b>2. Axmadxonov Farxodxon Murodxon o‘g‘li</b>	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BANK AKTIVLARINING AHAMIYATI .....	9
<b>3. Mavlonov Nurbek Ixtiyor o‘g‘li</b>	
MOLIYAVIY HISOBTLARNI TUZHISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH.....	12
<b>4. Mirzayev Ulug‘bek Ismatillo o‘g‘li</b>	
TIBBIYOT MUASSASALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI.....	14
<b>5. Mirzayev Ulug‘bek Ismatillo o‘g‘li</b>	
SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARIDA TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	16
<b>6. Murodullayeva Shohsanam Dilmurod qizi</b>	
NODAVLAT PENSIYA FONDLARINING XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI .....	19
<b>7. Norbekov Temurbek Shuhrat o‘g‘li</b>	
BUDJETI TIZIMIDA HISOB-KITOBLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	21
<b>8. Sotimov Fazliddin Qahramon o‘g‘li</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH .....	23
<b>9. Tursunboyev Tohir G‘ofur o‘g‘li</b>	
BUDJETI IJROSI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTLARNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH .....	26
<b>10. Arziqulova Maftuna Abdug‘aniyevna</b>	
IQTISODIYOTNI INNOVATSİYALASHUVI SHAROITIDA INVISTITSİYALARНИNG TUTGAN O‘RNI.....	28



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### BUDJET TASHKILOTLARI MABLAG'LARI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xolmurodov Baxrom Maxmatkarim o'g'li**  
O'zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tингловчиси  
Tel: 97 850-91-19

**Annotasiya:** Mazkur tezisda byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini tashkil etish va ularning tahlilini amalga oshirish, yo'llarini ko'rsatish borasida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** budjet, budjet hisobi, budjet hisobi standarti, pul, moliyalashtirish, tashkilot, investitsiya.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida budjet va soliq siyosatida olib borilayotgan islohotlar sharoitida budjet tashkilotlarini budgetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun olib borilayotgan tadbirlar, budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari ahamiyatining yuqori ekanligini ko'rsatib bermoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chora-tadbirlarning hayotga tadbiq etilishida davlat budgetining ijtimoiy funktsiyalari ayniqsa ravshanroq namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Budget mablag'laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarurligi, budjet hisobidan mablag' ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat, natijaga yo'naltirilgan indikatorlari bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tildi. Ma'lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan budgetga tushadigan mablag' albatta kamayadi. Buni samarali soliq ma'muriyatichiligi orqali bartaraf etish va budget barqarorligini ta'minlash mumkun. Aynan shunga erishish birinchi galadagi vazifamiz<sup>1</sup>” ekanligi president Sh. Mirziyoyev tomonidan aytib o'tildi.

Budget ijrosi jarayonida Davlat budgeti mablag'lari va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari shakillanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budget mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budget taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat budgeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat<sup>2</sup>- deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida.

Budget tashkilotlari budget mablag'larining asosiy iste'molchisi hisoblanib, davlat budgeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budgetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budget tashkiloti qonunchilikka muvofiq budgetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'yicha manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budgetining g'azna ijrosiga o'tilishi, o'rta muddatli budget istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budget siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga

1 Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 28.12.2018

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2017.



oshirilishi budget tashkilotlarida o‘z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budgetdan tashqari mablag`larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Budget hisobi davlat budgeti ijrosining buxgalteriya hisobidir. Budget hisobi davlat budgeti ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan hamma operatsiyalarni qamrab oladi va mazkur ijro jarayonida budgetning holatini tavsiflashni ta’minlaydi. Budget hisobi orqali xalq xo‘jaligi hamma tarmoqlarining davlat budgeti bilan o‘zaro aloqasi aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobi vositasida bank muassasalaridagi hisobvaraqlarda budgetning pul mablag‘lari, daromadlari va xarajatlari, hisob-kitoblardagi mablag‘lar, budget ijrosi jarayonida tashkil qilinadigan fondlar va zaxiralar hamda budget tashkilotlarining moddiy qiymatliklari aks ettiriladi. Budgetning daromadlari, xarajatlari va pul mablag‘lari, budget ijrosi jarayonida ularning harakati hamda budgetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarning moddiy qiymatliklari budget hisobining bevosita obyektlari hisoblanadi.

Davlat budgeti ijrosi jarayonida alohida budgetlar bilan hisob-kitob munosabatlari vujudga kelishi mumkin. Bunday o‘zaro hisob-kitoblar vujudga kelishi asosida har bir ma’muriy-hududiy bo‘linmaning budgeti daromadlar va xarajatlар balansi tarzida tashkil topishi yotadi. Barcha xarajatlар rejalashtirilgan daromadlar bilan qoplanadi. Shuning uchun, budget tasdiqlangandan so‘ng, qo‘srimcha xarajatlар yuklansa, ulami ta’minlash uchun mablag‘ ham berilishi kerak bo‘ladi. Daromad beruvchi manbalar kamayganda ulami qoplash uchun mablag‘lar olinishi kerak bo‘ladi. Tasdiqlangan budgetda ko‘zda tutilmagan daromadlaming manbalari paydo bo‘lganda qo‘srimcha hisoblangan daromad summasi yuqori budgetga berilishi kerak bo‘ladi.

Budget tashkilotlari, korxonalari va xo‘jalik birlashmalarini moliyalashtirishni bir budgetdan boshqa budgetga o‘tkazishda ushbu budget tashkilotlari, korxonalari va xo‘jalik birlashmalarini bo‘yicha yil boshidan boshlab amalga oshirilgan xarajatlari budgetda ko‘zda tutilgan yillik ajratmalarning summalarini to‘liqligicha moliyalashtirish amalga oshiriladigan budgetda aks ettirilishi kerak.

Bir budgetdan ikkinchi budgetga xarajatlarni o‘tkazganda, yuqori moliya organi quyi moliya organiga budget tashkilotlari, korxonalari va xo‘jalik birlashmalarini bir budgetdan moliyalashtirish to‘xtatilganligi va ikkinchi budgetdan moliyalashtirish boshlanganligi belgilangan sanani ma‘lum qiladi.

Budget tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada budget hisobining xorij tajribalarini o‘rganish ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda alohida axamiyat kasb etadi. Shuningdek, budget hisobi va hisobotini takomillashtirishda byudjet hisobining xorij tajribalri, ularni qo’llashning afzallaliklari va bosqichlarini chuqur o‘rganishni talab etadi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg\_almalarida naqd pulsiz hisob shakllarini qo’llagan holda hisoblashuv muomalalari amalga oshiradi. Bunda asosan to’lov topshiriqnomasi shakli qo’llaniladi. To’lov topshiriqnomasida to’lovchi bo‘lib, G’aznachilik va uning hududiy bo‘limlari nomi ko‘rsatiladi. Budget tashkilotlari nomi, shaxsiy hisobvarag‘i nomeri, STIR to’lov topshiriqnomasida alohida qatorda keltiriladi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg\_almalarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, shuningdek xizmat safari xarajatlarini to’lash uchun naqd pul mablag‘lari olishga g’aznachilik bo‘linmasiga budgetdan mablag‘ oluvchining rahbari va bosh hisobchisi imzosi bilan, ikki nusxada ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, shuningdek xizmat safari xarajatlarini to’lash uchun naqd pul mablag‘lari olishga so’rovnama va unga to’ldirilgan chek ilova qilingan holda taqdim qiladi.

Mazkur tezis orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotining ko‘plab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan va ularning natijalari iqtisodiy ko‘rsatkichlarga o‘zining ta’sirini ko‘rsatayotgan bir davrda davlat budgeti qonunchiligini mustahkamlab va takomillashtirib borish davlat moliyasi tizimining isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Budget tizimida pul mablag‘larini nazorat qilish borasida amaliy ishlar davom etmoqda va budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi faoliyatini tubdan isloh qilish orqali yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga, shuningdek, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, budgetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta’minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to‘liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

1 M . Ostonaqulov. Budget hisobi. - T.: «Talqin», 2008. -4 2 4 bet.



BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BANK  
AKTIVLARINING AHAMIYATI

Axmadxonov Farxodxon Murodxon o’g’li

O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya

akademiyasi magistranti

Tel: +998 94 174 77 22

**Annotatsiya:** Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning birlamchi zaruriy shartlaridan biri bu - bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishishi hisoblanadi. Maqolada tijorat banklari aktivlarining daromadliligin oshirish samaradorligi yoritilgan.

**Kalit so‘zlari:** bank aktivlari, tijorat banklari, daromad, mulkchilik, kredit.

**Аннотация:** Одной из предпосылок обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков является достижение стабильного уровня доходности банковских активов. В статье рассматривается эффективность повышения рентабельности активов коммерческих банков.

**Ключевые слова:** банковские активы, коммерческие банки, доход, собственность, кредит.

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdorining ko‘payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida undirib olishni ta’minlash banklar aktiv operatsiyalarini tarkibida yuqori salmoqqa ega bo‘lgan kredit operasiyalarini doimiy kuzatib borish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillardanoq hukumatimiz tomonidan bank tizimini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda, chunki bank sektori mamlakat moliyaviy barqarorligining muhim jihatni hisoblanadi. Umuman olganda, O’zbekiston Respublikasining bank sektori uchun so‘nggi o‘n yil aholi va korxonalarga bank xizmatlarini taqdim etishning jadal o‘sishi va kengayishi yillari bo‘ldi [5.: 2017, vol.3].

Hozirgi kunda banklar iqtisodiyotda, xususan dunyoning ko‘plab mamlakatlarining moliya tizimlarida katta rol o‘ynaydi. Mablag‘larning katta qismi banklar orgali yo‘naltiriladi va bu banklarni eng muhim moliyaviy institatlardan biriga aylantiradi. Banklarning iqtisodiyotdagi muqarrar roli tartibga solish va nazoratning maxsus shakllarini, shuningdek o‘zlarining faoliyatini tekshirishni talab qiladi. Daromadlilik banklar faoliyatining keng tarqalgan ko‘rsatkichlaridan biridir [7.: 2017, vol.3].

Shu jihatdan, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning birlamchi zaruriy shartlaridan biri bu - bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishishi hisoblanadi [4.:126]. Umuman olganda tijorat banklari aktivlarining daromadliligin oshirish bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bizga ma’lumki, tijorat banklarining mablag‘larni jalb qilish qobiliyati qanchalik yuqori bo‘lsa, banklar uchun mablag‘larni zayomlar shaklida yo‘naltirish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi [2.:78]. Bu shuni anglatadiki, bankning daromad, foya olish ehtimoli oshadi. Ushbu holatda banklarning daromadliliği aktivlarning yuqoriligi yordamida aniqlanadi. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida moliya bozorlarini va tijorat banklarining investisiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirishga qaratilgan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan va o‘z resurslari hisobidan xorijiy valyutani tegishli qoidalarga rioya qilgan holda erkin sotish tizimini joriy qilish belgilab olingan.

Harakatlar strategiyasining 3-ustuvor yo‘nalishida "...bank tizimini isloq qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darjasasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligin mustahkamlash, istiqbolli investisiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish" [8.; 2017 й., 6-сон. . www.lex.uz] belgilab berilgan.




O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, ilmiy xulosalarni shakllantirish aktivlarning amaldagi tarkibini ularning likvidliligi, daromadliligi va riskliligi jihatidan baholashni taqozo etadi.

O.Sattarov o‘z ilmiy maqolasida shunday deb ta’kidlagan – “Banklar rentabelligini oshirib borish uning barqarorligini ta’minlashda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari yoki bank tizimi aktivlari ko‘rsatkichlarini doimiy tahlil etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki aynan ushbu ko‘rsatkich orqali bank risklarini baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Aktivlarni tahlil etish natijasida banklarning kredit riski, foiz riski, likvidlik riski, operatsion risk hamda bank foydalilik darajasiga ta’sir etuvchi har qanday risklarini baholash imkonи paydo bo‘ladi” [6.:2018. 3-son].

Quyidagi ma'lumotlar orqali respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibiga baho berishimiz mumkin.

Banklarning umumiyl kapitali va depozit bazasining yanada mustahkamlanishi ularning iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investision faollikni rag‘batlantirishni ichki manbalar hisobiga amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, bank tizimi aktivlarining sifat hamda miqdor jihatdan oshishiga xizmat qilmoqda.



**1-rasm. Tijorat banklarining jami aktivlari qoldig‘i, mlrd,so‘m.**

Tijorat banklari aktivlarining umumiyl summasi 2021 yil holatiga ko‘ra, 2019 yildagiga nisbatan 23,3 foizga oshib qariyb 80,4 trln. so‘mni tashkil etdi.

Xususan, iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari hajmi 2020 yilda 25,1 foizga oshib, 53,4 trln. so‘mga etdi. Mazkur kreditlarning 80 foizini investisiyaviy maqsadlarga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi.

Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 86,8 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Bu esa tijorat banklarining hamda umuman, mamlakatimiz bank tizimining yetarli darajada shakllangan resurs bazasiga ega ekanligidan va har qanday tashqi omillarning salbiy ta’sirlaridan himoyalanganligidan dalolat beradi [9.: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) ].

O‘z navbatida, xorijiy moliya institutlaridan jalb qilinayotgan mablag‘lar esa, asosan infratuzilma ob‘ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturlari bo‘yicha uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda, Respublikamiz tijorat banklari aktivlarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

Tijorat banklarining cassali aktivlariga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- cassali aktivlarning likvidlilik darajasi nisbatan juda yuqori bo‘lganligi sababli ularning daromadlilik darajasi sezilarli darajada pastdir;

- o‘z mablag‘lari va majburiyatlarini boshqarishga kompleks yondashuv tijorat banklarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi;



- kassali aktivlar moliya bozorlari rivojlanmagan mamlakatlarda tijorat banklari balansining likvidliliginini ta'minlash imkonini beradigan yagona aktivlar guruhi hisoblanadi;
- kassali aktivlar mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishiga, moliya bozorlarining segmentlaridagi o'zgarishlarga nisbatan sezilarli darajada ta'sirchan bo'lgan aktivlar hisoblanadi.

Tijorat banklari o'zlarining mustaqilligini ta'minlashi, ichki manbalar hisobidan kapitalni ko'paytirishga, asosan, bank aktivlarini barqarorligini ta'minlashga va foyda olishga alohida e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq. Yakunda ularning moliyaviy barqarorligini oshishiga va mustahkamlashishi erishish mumkin bo'ladi. Qaysi bankning moliyaviy barqarorligi yuqori bo'lsa, o'sha bankning kreditlash salohiyati kengayib, rentabellik darajasi ham oshib boradi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar.**

1. Egamberdiyev E. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: 2005., 256
2. Qobilov SH R. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: 2013.,78
3. Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J. Marketing. O'quv qo'llanma. – T.: 2009 ., 236
4. Спицин И.О. Банковский маркетинг. – Тернополь: 2013.,126
5. Umarov A. Z., Asrarova M.,B. Objectives of the provision of financial stability of commercial banks. International Finance and Accounting 2017, vol.3
6. Sattarov O.B. Bank tizimi barqarorligini ta'minlash: nazariy va amaliy jihatlar. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnalı. № 3 2018
7. Zakhirov, M. M. Capital efficiency (return on equity) in banks and risks. International Finance and Accounting 2017, vol.3
8. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) Monetar siyosatning 2017-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari



## MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH

**Mavlonov Nurbek Ixtiyor o'g'li**  
O'zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tinglovchisi  
Tel: 90 444-99-55

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida transformatsiyalash hamda bu orqali jahon maydoniga aniq va ishonchli ma'lumotlar bilan kirish, MHXS talablari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning zaruriyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy natijalar, milliy standartlar, transformatsiyalash.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatlari va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlari davom etmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub'ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bilan bog'liq. Xususan, so'nggi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish bo'yicha qator samarali ishlari amalga oshirilmoqda va bugungi kunda ushbu ulkan ishlarning navbatdagi istiqbolli bosqichiga o'tildi desak bo'ladi.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini MHXSga asosan transformatsiyalash jarayonini tashkil etish hamda huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatları, tijorat bankları, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar - MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi hamda bu sohada mutaxassislarni tayyorlash masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bu orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish<sup>1</sup> va boshqa masalalar bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan 2020-yil 12-oktabrda 92-sonli MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va ularni ekspertizadan o'tkazishni tashkil qilish to'g'risida buyrug'iga binoan, 62 ta MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilindi.

Kapital bozorini rivojlantirish agentligi bu bo'yicha yangi talablarni tasdiqladi. Unga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatları 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va moliyaviy hisobotni shu asosda tayyorlaydi. 2021-yil yakuniga qadar hisobchilarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud “CIPA”, “ASSA”, “SRA” va “DipIFR” sertifikatlaridan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatlari qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlashi lozim<sup>2</sup>.

Iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, M.Rahimov, I.Qo'ziyevlar MHXS ga o'tishning istiqbollari<sup>3</sup>, A.Z.Avloqulov moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni yuritish to'g'risida izlanishlar olib borishgan.

Iqtisodchi Xudayberdiyeva N.M. O'zbekiston Respublikasida budget hisobi va hisoboti tizimini rivojlantirishning zarurligi, davlat sektorida hisob va hisobot tizimini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi, budget hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirishda xalqaro standartlar talablaridan foydalanish, mamlakatimizda xalqaro standartlarni moslashtirish asosida budget hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish borasida o'rganishlar olib borgan.

Iqtisodiyotimizni yanada modernizatsiyalash jarayonida xalqaro sarmoyadorlar va kreditorlar, xalqaro moliya institutlari, xalqaro menejerlar va biznesda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan vakillarni ishonchli va tezkor moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash eng dolzarb masala sifatida

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagli PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarori.

<sup>2</sup> Jo'lmatov N. Aksiyadorlik jamiyatlarida MHXS, Zarnews.uz 20.11.2020

<sup>3</sup> A. Karimov, I. Qo'ziyev, M. Rahimov. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish: muammo va istiqbol “Xalqaro ilmiy moliya va hisob” jurnalni. № 4, avgust, 2020 yil 3-bet.



qaralmoqda. Asosan hozirgi kunda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar orasida investorlar muhim rol o'yamoqda. Ularning asosiy maqsadi yanada ko'proq dividend va kapitallarni ko'paytirish orqali daromad olish hisoblanadi. Shu sababdan ham ular nafaqat mavjud vaziyat haqida ma'lumotni, balki tashkilotning kelajakda yuzaga kelishi mumkun bo'lgan imkoniyatlari va risklari haqida ham qiziqishadi. Moliyaviy hisobotning maqsadi ham amaliy jihatdan tashkilot uchun samarali bo'lgan va keng ko'lamli foydalanuvchilar uchun foydali bo'lgan moliyaviy holat, tashkilot faoliyatining natijalari to'g'risida ma'lumot berish hisoblanadi.

Shu munosabat bilan ham MHXS larini buxgalteriya hisobi milliy standartlariga transformatsiya qilish va buning asosida bu hisobotdan foydalanuvchilarga axborotdan foydalanishda qulayliklar yaratish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari talablariga muvofiq buxgalteriya hisobotlari shaklini o'zgartirishning umumiyligi ma'nosi O'zbekiston Respublikasi qoidalariga muvofiq tuzilgan hisobotlar bilan ularni MHXSga muvofiq tuzilgan hisobotlar deb e'tirof etish imkonini beruvchi tuzatishlarni amalga oshirishdan iborat.

Hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlar MHXS lardan foydalanib kelmoqda. Bu standartlar turli xil milliy hisob tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilishi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo'yicha ham barcha uchun bir xil bo'lishi kerak. Xozirgi kunda xalqaro standartlar tarkibi bo'yicha uch qismdan iborat. Birinchi qism – kirish, ikkinchi qism – hisob obyektining tavsifi, uchinchi qism – buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb ataladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkilotlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, jami daromadlar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotlarni tuzishi talab etiladi.

Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan moliyaviy hisobot taqdim etish uchun tashkilot schetlar rejasi bo'yicha buxgalteriya hisoboti tuzatish kiritilgan barcha ma'lumotlarni MHXS bo'yicha taklif etilayotgan buxgalteriya hisobi schetlariga o'tkazish lozim. Bu qayta tasniflash quyidagi vazifalarni hal etishga imkon beradi: MHXSga muvofiq yuritiladigan buxgalteriya hisobi schetlari bo'yicha boshlang'ich saldoni hisobga olgan holda boshqa moliyaviy hisobot shakllantirish va buxgalteriya balansi tuzish, shuningdek, xalqaro standartlar talablariga muvofiq barcha zaruriy tahliliy axborotlar olish<sup>1</sup>.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - buxgalterlik standartlarini ishlab chiquvchi organlari hali tuzilmagan yoki standartlarni ishlab chiqishga resurslari yetarli bo'lмаган rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham juda foydalidir. Chunki moliyaviy hisobotlarni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etishda moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish o'ziga yarasha xarajatlarni talab qiladi. Barcha uchun tushunarli va umumiyligi biznes tiliga ega bo'lgan xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish esa albatta bu kabi muammolarning oldini olishga imkon beradi.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo'yicha to'plangan nazariy va amaliy ko'nikmalar hamda tahliliy ma'lumotlardan foydalanib quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin:

- avvalo, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlaridan foydalanish orqali moliyaviy tahlil ko'rsatkichlarini ma'lumotdan tashqi foydalanuvchilarga xususan, investorlarga yagona umumlashgan hisobotlarga ilova tarzida kiritib borish zarur. Bu orqali faoliyat rentabelligini aniq ko'ra olish imkoniyati yanada ortadi;

- ta'lim va amaliyot integratsiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Negaki ushbu standartlar barcha mamlakatlarda asta sekinlik bilan joriy etilayotganligi sababli ushbu soha mutaxassislarini sifatida talabalarni ayta olamiz. Ya'ni, bu kadrlarni MHXS bo'yicha yuqori bilim va malakaga ega bo'lib shakllanishi uchun tashkilotlarda stajirovkalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir;

- MHXS lardan foydalanish uchun faol fond va valuta bozori ham rivojlangan bo'lishi lozim. Aholida ushbu soha bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish zarur. Bu orqali xorijiy investorlar sarmoya kiritishi uchun ishtiyoq paydo bo'lishiga erishishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz globallashuv sharoitida xalqaro hisob siyosatini yuritish va standartlarini qabul qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Zero hisob siyosati va shaffofligi har qanday axborot foydalanuvchiga tushunarli va ma'lumot taqdim etiluvchiga ya'ni potensial investorga malakali, moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bu orqali biz mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishga erishishimiz mumkun bo'ladi.

1 Muzrapova Sh.S. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi. "Tafakkur manzili" jurnali. Vol.16, no 3. 2022, 225-bet.



## TIBBIYOT MUASSASALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI

**Mirzayev Ulug‘bek Ismatillo o‘g‘li**  
 O‘zbekiston Respublikasi bank moliya  
 akademiyasi tinglovchisi  
 Tel: 94 244-33-53

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiyot muassasalarining buxgalteriya hisobotlari hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tovar moddiy-zahiralar, materiallar, joriy qiymat, realizatsiya qilishning sof qiymati, daromadlar va xarajatlar.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatlari va raqobatbardosh tizim yaratish bo‘yicha amaliy ishlar davom etmoqda. Sub‘ektga tegishli bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralari, shu jumladan, yo‘ldagi va qayta ishslashga berilgan, ishlanadigan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqarish va boshqa xo‘jalik maqsadlari uchun ishlatiladigan mehnat buyumlari, xomashyo va materiallar, mehnat buyumlarining tarkibi, miqdori, harakati, ularni tayyorlash, sotib olish, qayta baholash jarayonlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirishning tartib va qoidalari o‘rganiladi.

Boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olangan) va tashkilotning odatiy faoliyati davomida qo‘srimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar obyektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) ham keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo‘lib hisoblanishi mumkin.

I.N.Qo‘ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonovlarning ta’kidlashicha tovar-moddiy zahiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo‘lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma‘muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Tovar-moddiy zahiralarga xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo‘limgan yoki bir operatsion tsikl mobaynida foydalaniladigan molmulklar, jumladan, qurilish – ta‘mirlash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg‘ilar, yonilg‘ilar, ozuqa va yem-hashak, tara (idish)lar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish buyumlari, o’stiruvdagagi va boquvdagi chorva mollari, o‘quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar hamda laboratoriya sinovida bo‘lgan, uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar, shartnomma asosida bajariladigan ilmiytadqiqot ishlari uchun maxsus asbob-uskunalar va boshqalar qiradi<sup>1</sup>.

Tovar-moddiy zaxiralalar aktiv sifatida tan olinadi, agar:

- tashkilotga aktiv bilan bog‘liq kelgusidagi iqtisodiy naf kelishiga ishonch mavjud bo‘lsa;
- aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo‘lsa;
- ularga bo‘lgan mulk huquqi o‘tsa.

Tovar-moddiy zaxiralalar tashkilotning buxgalteriya balansiga quyidagilar natijasida kiritilishi lozim:

- mahsulot yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo‘yicha xarid qilish;
- bepul kelib tushish (hadya shartnomasi bo‘yicha);
- ayrboshlash;
- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o‘tkazish;
- ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash;
- ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish;
- tashkilotning o‘zida tayyorlanishi;
- hisobot davri oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish;
- tovar-moddiy zaxiralarga bo‘lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

Tovar-moddiy zahiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib

<sup>1</sup> I.N.Qo‘ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.



turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo’lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Tovar-moddiy zaxiralari — faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo’lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Tovar-moddiy zahiralari tashkilotlarda quyidagilar ko’rinishida bo’lishi mumkin:

a) mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko’rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko’rsatish, ma’muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo’ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg’i, idish va idishbop materiallar, ehtiyoj qismlar, inventar va xo’jalik anjomlari, boshqa materiallar zahiralari;

b) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish tsiklining pirovard natijasi - sotish uchun mo’ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

c) boshqa yuridik yoki jismoni shaxslardan xarid qilingan (olingo) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo\_shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo’ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar obyektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo’lib hisoblanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog’liq bo’lgan va ularning tannarxiga boshqa xarajatlar ham kiritilishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralari qabul qilingan sanadan so’ng ularni xarid qilish bo‘yicha shartnoma shartlarini bajarish natijasida yuzaga kelgan (olingo) chegirmalar, tashkilotning moliyaviy natijalariga olib boriladi va sotib olingen tovar-moddiy zaxiralari qiymatini kamaytirmaydi.

Qo’shimcha tovar-moddiy zaxiralari bepul olinganda, agar tasdiqlovchi birlamchi hisob hujjatlari mavjud bo’lganda, sotib olingen tovar-moddiy zaxiralari qiymati barcha olingen tovar-moddiy zaxiralari miqdoriga (bepul olingen tovar-moddiy zaxiralari ham hisobga olgan holda) taqsimlash orqali ularning tannarxi aniqlanadi.

Avval yetkazib berilgan tovar-moddiy zaxiralari hisobidan qo’shimcha tovar-moddiy zaxiralari bepul olinganda, mazkur bandda belgilangan tartibda hisoblab chiqarilgan qo’shimcha olingen tovar-moddiy zaxiralari tannarxi hisobot davrining moliyaviy natijalariga olib boriladi.

Tibbiyot muassasalarida tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog’liq bo’lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- bojxona bojlari va yig’imlari;
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog’liq bo’lgan soliq va yig’imlar summalarini (agar ular qoplanmasa (hisobga olishga qabul qilinmasa));
- tovar-moddiy zaxiralari ta’minotchi va vositachi tashkilotlar orqali xarid qilinganda ularga to’lanadigan to’lovlar (vositachilik haqi).

Axborot tizimidagi avtomatlashtirish bosqichi integratsiya bosqichiga o’tish uchun asos bo’lib xizmat qiladi va tashkilotga quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

- buxgalteriya hisobi siyosatini kuchaytirish (jarayonlarning me’yoriy meyorlarga muvofiqligini avtomatik nazorat qilish tufayli);

- operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali ish samaradorligini oshirish (qo’l mehnati miqdorini kamaytirish va tahlil qilish);

mahsulotlarni chiqish hujjatlarini qabul qilishni avtomatlashtirish maqsadga muvofiq.

Tovar-moddiy zaxiralari — faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo’lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

O’zbekistonda iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish sharoitida sog’liqni saqlash iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari qatorida barqaror rivojlanirilmoqda. Davlat sektori qatorida nodavlat sektorining rivojlanishiga keng yo’l ochmoqda, boshqarish va moliyalashning yangi tizimi joriy etilmoqda. Bu holat kelgusi tizim faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.



## SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARIDA TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Mirzayev Ulug‘bek Ismatillo o‘g‘li  
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tinglovchisi  
Tel: 94 244-33-53

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi sog‘lijni saqlash muassasalarida tovar moddiy-zaxiralar hisobi yuritishni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar yuzasidan fikr almashilgan. Bunda tibbiyot muassasalarining buxgalteriya hisobotlari hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tovar moddiy-zaxiralar, materiallar, joriy qiymat, realizatsiya qilishning sof qiymati, daromadlar va xarajatlar.

Mamlakatimizda aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirishga, sog‘lijni saqlash davlat tiziminining kadrlar salohiyatini mustahkamlashga, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini yaxshilashga qaratilgan sog‘lijni saqlashni isloh qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish jarayonining umumiy asoslari ishlab chiqilganiga qaramasdan bu sohada hali hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalar mavjud. Bu masalalarning hal etilishi o‘z navbatida, sog‘lijni saqlash tizimiga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, jamiyatimiz rivojida muhim ahamiyat kasb etayotgan sog‘lijni saqlash sohasini moliyalashtirishni isloh etishning strategiyalarini puxta ishlab chiqilishida taklif va tavsiyalar zarurligi mazkur mavzuning dolzarbligini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘shlangan Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Budget mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarurligi, budget hisobidan mablag‘ ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridan iborat, natijaga yo‘naltirilgan indikatorlari bo‘lishi kerakligi ta’kidlab o‘tildi.

Shu bilan birga budget tizimida natijadorlikni ta’minalash, byudjet ijrosiga oid axborotlarning ochiqligi va oshkorraligiga erishish, mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, byudjet tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish zarur.

Budget tizimida islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor munosabatlari talablari asosida yuz bergan va berayotgan tub o‘zgarishlar, ularni miqdor jihatdan ifodalash va sifat jihatdan tavsiflash, nazorat va tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotlar olishda asosan hisob tizimiga murojat qilinadi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, davlat budgetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining hisob yuritish tizimi, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibi hamda nazorat tizimini bozor munosabatlari talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, rivojlantirish va takomillashtirib borish davlatimiz byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir. Respublikamiz byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda belgilangan ustuvor vazifalarni ro‘yobga chiqarishda byudjet mablag‘laridan yanada maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minalash uchun byudjet tashkilotlarda tovar moddiy zahiralar hisobini takomillashtirish masalasini yaxlit holda o‘rganishni talab etadi. Byudjet tashkilotlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarishda tovar moddiy zahiralarga extiyoj sezadi. Tovar moddiy zahiralar tashkilotda joriy davrda foydalanilib, xarajatlar tarkibiga olib borish orqali hisobdan chiqariladi. Tashkilotlarning faoliyat turlariga qarab tovar moddiy zahiralarning turlari ham farq qiladi. Tovar moddiy zahiralarni hisobga oluvchi schyotlarda tashkilotga tegishli bo‘lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo‘lmagan yoki bir operatsion tsikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar, jumladan, qurilish – ta’mirlash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg‘ilar, ozuqa va em-hashak, tara (idish)lar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish buyumlari, o’stiruvdag‘i va boquvdagi chorva mollari, o‘quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar hamda laboratoriya sinovida bo‘lgan, uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar, shartnoma asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari



uchun maxsus asbob-uskunalar va boshqalar hisobga olinadi.

Tibbiyot muassasalarida tovar-moddiy zaxiralar:

Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, ma’muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan xomashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg‘i, tara va tarabop materiallar, ehtiyoj qismlar, inventar va xo‘jalik jihozlari, boshqa materiallar zaxiralari;

Mexanizm qismlari, qurilmalar, buyumlarga tugallanmagan ishlov berilishi va ularning yig‘ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko‘rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Xizmatlar ko‘rsatuvchi va ishlar bajaruvchi tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati sifatida qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad sifatida tan olinmagan tugallanmagan xizmatlar (ishlar) bo‘yicha xarajatlardan tashkil topadi;

Tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan va shartnomada yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv).

Budget tashkilotlarida tovar moddiy zahiralar hisobini tashkil etishdan maqsad

– foydalanuvchilarni tashkilotdagи tovar moddiy zahiralar, ularning tarkibi, harakati va holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotlar bilan ta‘minlashdan iborat.

Tovar moddiy zahiralar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1. Moddiy aktivlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tovar-moddiy zahiralar tarkibida aks ettirish;
2. Tovar moddiy zahiralarni kelib tushishi, ularni tashkilot hisobidan chiqarilishi, shuningdek, saqlanishi va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat qilish;
3. Zahiralalar va xarajatlarning belgilangan me’yorlarini kuzatib borish;
4. Belgilangan tartibda realizatsiya qilinishi lozim bo‘lgan, foydalanilmaydigan tovar moddiy zahiralarni uz vaqtida aniqlash;
5. Tovar moddiy zahiralar xarakatini hujjatlarda tugri rasmiylashtirish hamda hisob registrlarida o‘z vaqtida aks ettirilishini ta‘minlash;
6. Tovar moddiy zahiralarni buxgalteriya hisobvaraqlarda holati va harakatini aksettirish;
7. Tovar moddiy zahiralar bo‘yicha o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq buxgalteriya axborotlarini shakllantirib berish.

Buxgalteriyada budget mablag‘lari yoki budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan sotib olingan (tayyorlangan) tovar moddiy zahiralarning hisobi miqdor va summa ifodasida tovar moddiy zahiralarning nomi, sotib olinish (tayyorlanish) manbaalari va moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha 296-sون shakldagi material qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi daftari (kartochkasi)da hamda M-44-sон shakldagi material zahiralar bo‘yicha aylanma qaydnomada yuritiladi. Omborlardagi tovar moddiy zahiralarning hisobi moddiy javobgar shaxs tomonidan M-17-sон shakldagi materiallarni ombor hisobi daftarida faqat nomi, navi va miqdori bo‘yicha yuritiladi. Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralarni hisobdan chiqarish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma’lumki tovar moddiy zahiralar tashkilotning balansidan: sotish, beg’araz berish, saqlash muddati tugagach yaroqsizligi sababli, jismonan va ma’nан eskirganligi natijasida tugatish (yo‘q qilish), kamomad, yo‘qotish yoki shikastlanish (sinish, bo‘linish) aniqlanishi, boshqa operatsiyalar va hodisalar natijasida hisobdan chiqariladi.

Tovar moddiy zahiralar tashkilotda joriy davrda foydalanilib, xarajatlar tarkibiga olib borish orqali hisobdan chiqariladi. Tashkilotlarning faoliyat turlariga qarab tovar moddiy zahiralarning turlari ham farq qiladi. Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralar byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilinishi mumkin. Tovar moddiy zahiralarning kirim qilinish manbalari bo‘yicha alohida hisobi yuritiladi. Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralardan to‘g‘ri foydalanishni tashkil qilish muhim hisoblanadi. Chunki, tovar moddiy zahiralar faoliyat davomida doimo foydalanishda bo‘ladigan aktivlar hisoblanadi.

Tovar moddiy zahiralar sotib olingan bahoda (yetkazib berish va boshqa qo’shimcha xarajatlarni ham hisobga olgan holda) yoki ular har xil narxlarda sotib olingan bo‘lsa, o‘rtacha bahoda hisobdan o‘chiriladi. Tovar moddiy zahiralar va oziq-ovqat mahsulotlari belgilangan tartibda tasdiqlangan me’yorlar doirasida tashkilot rahbari (yoki uning o‘ribbosari) tomonidan tasdiqlangan yuqoridagi



tegishli hujjatlarga muvofiq hisobdan chiqarilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tovar-moddiy zaxiralarning chiqarilishi va joylashtirilishini, ularni inventarizatsiyani va zaxiralarni qayta baholashni qamrab olishga yordam beradi, bu esa o’z navbatida tashkilotlarda tovar-moddiy zaxiralarini tizimli boshqarish imkoniyatini kengaytiradi.



## NODAVLAT PENSIYA FONDLARINING XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI

**Murodullayeva Shohsanam Dilmurod qizi**

O‘zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

mamutovashohsanam@gmail.com

**Annotatsiya:** Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar pensiya fondlari amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyo mamlakatlari aholisining demografik o‘zgarishi, iqtisodiyotning rivojlanishi sari aholining turmush tarzi yaxshilanishi natijasida ularning o‘rtacha umr ko‘rish yoshining oshib borayotganligi va mexnat faoliyati bilan band bo‘lgan aholiga nisbatan pensionerlar ulushining oshib borayotganligi natijasida pensiya fondlarini moliyaviy ta’minalashda yuzaga kelayotgan muammolar avlodlar birdamligiga asoslangan pensiya tizimidan jamg‘arib boriladigan nodavlat pensiya fondlarini tashkil qilish va ularning moliyaviy daromadlarini oshirishda jamg‘arma mablag‘larini investision faoliyatini shakllantrish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqazo qilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** pensiya, pensiya ta’minoti, nodavlat pensiya, xusuxiy investitsiya fondlari, sug‘urta tashkilotlari, pensiya rejasi, jamg‘arib boriladigan pensiya.

Har bir mamlakatdagi pensiya ta’minoti tashkiliy, moliyaviy va boshqa jihatlari bilan biridan farqlanadi. Lekin, ularning birlashtirib boruvchi jihat sifatida pensiya ta’minotining “uch pog‘onali” tizimga asoslanishini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Pensiya ta’minoti tizimiga davlat, nodavlat va xususiy (ishlab chiqarish va korporativ) pensiya fondlari va sug‘urta institutlari kiradi. Bu shakldagi tizim qator rivojlanga mamlakatlarda qabul qilingan bo‘lib muntazam takomillashtirib borilmoqda. Odatda, davlatning pensiya ta’minoti tizimi butun mamlakat aholisining yoki uning alohida qatlamlarini qamrab oladi<sup>1</sup>.

Nodavlat pensiya fondlari tijorat tashkilotlari hisoblanadi ularning faoliyat sohasi cheklangan miqdordagi qatnashuvchilar bilan bog‘liq. Ko‘pincha ushbu rolni yirik korxonalar kompaniyalar va korporatsiyalarning mehnat kollektivlari profsoyuzlar bajaradilar. Uchinchi element sifatida esa individual yoki fuqorolar guruhlarining pensiya taminotlari bilan shug‘ullanuvchi xusuxiy investitsiya fondlari, sug‘urta tashkilotlarini keltirish mumkin. Jahonda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar pensiya tizimlarini organib chiqish orqali barcha davlatlar pensiya ta’minoti tizimida o‘ziga yarasha kamchilik va muammolari borligini ko‘ramiz. Chunki rivojlanganlik darajasini bildiruvchi ko‘rsatkichlar orasida aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi ham bor.

Bilamizki bugungi kunda ko‘pchilik davlatlarda pensionerlar sonining oshib borish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin, bu esa ushbu sohadagi yuzaga keladigan muammolarning biri deya ayta olamiz, quyidagi jadvalda keksalarning mehnatga layoqatli yoshdagilarga nisbati keltirilgan(1-jadval).

**1-jadval**

**Keksalarning mehnatga layoqatli yoshdagilarga nisbati: prognoz,2020-2050<sup>2</sup>**

Yillar	Davlatlar	2020	2050
Chili		19.7	44.6
Finlandiya		40.1	51.4
Yaponiya		52.0	80.7
Turkiya		15.2	37.0
Ispaniya		32.8	78.4
Nederlandiya		34.3	53.3

1 Андреева Е. А. (2014) Корпоративное обеспечение в пенсионной системе России. URLhttp://conf.srukras.ru/sites/pdf/d01/s32/s32\_001.pdf

2 OECD (2021), Pensions at a Glance 2021: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/ca401ebd-en>. P-173.



Xalqaro pensiya nazariyasida “pensiya rejasi” (ba’zan pensiya sxemasi deb ham yuritiladi) tushunchasi asosiy o’rinni egallaydi. Pensiya rejalarini, o’z nomiga monand ravishda, ishchilarni mexnat faoliyatini yakunlagandan so‘ng doimiy pul ta’minoti bilan ta’minalash uchun ulardan va ularni yollagan xo’jalik yurituvchi sub’ektlardan olingan pensiya badallaridan tashkil topgan aktivlarni rejali boshqarishni anglatadi. Pensiya rejalarini dunyodagi eng katta kapitalni o’zida jamlagan moliyaviy tizim hisoblanib, ularni boshqarishda moliyaviy menejerlar o’ziga xos mas’uliyat oladilar<sup>1</sup>.

Shu nuqtai nazardan, pensiya fondlari va pensiya rejalarini (sxemalari) ham ish beruvchi, ham ishchi uchun jozibadordir. Chunki, pensiya rejalarini taklif etuvchi kompaniyalar yuqori malakali ishchilarni yollash va ularni o’zida saqlab qolish imkoniyatiga egalar. Buning sababi esa oddiy: har qanday ishchi yuqori darajadagi pensiya o’tkazmalarini taklif etuvchi firmalarni qidiradi. Pensiya rejalarini orqali kelgusida olinishi va’da etilgan daromadlar ishchilar uchun kelajakda o’z nafaqasini ta’minalash maqsadida tashkil etiladigan shaxsiy jamg’armalarning o’rnini bosa oladi.

Pensiya rejalarining 3 asosiy turi farqlanadi: o’zgarmas ta’minotli pensiya rejalarini, davlat ijtimoiy himoya rejalarini va jamg’arib boriladigan pensiya rejalarini. Ular bir-birlaridan aktivlarni boshqarish riski va mukofoti, investision portfelning ijro etilishidagi riskning ish beruvchi, ishchi yoki soliq to’lovchiga o’tishiga qarab farqlanadi. O’zgarmas ta’minotli pensiya rejalarini nafaqaxo’rlar uchun o’zgarmas daromadni kafolatlaydi va ayni paytda ish beruvchi uchun riskli bo’lishi mumkin. Boshqacha aytganda, nafaqaxo’rlarga kafolatlangan va o’zgarmas daromadni taklif etish bilan birga barcha investision riskni o’z gardaniga oladi. Davlat ijtimoiy ximoya rejalarini muayyan mamlakatda muqaddam ish bilan band bo’lgan fuqarolarni, ularning davlat yoki xususiy sektorda mexnat qilganliklaridan qat’i nazar, pensiya daromadlari bilan ta’minalaydi. Bu turdagi daromadlarni olish uchun fuqaro belgilab qo’ylgan eng kam ish stajiga ega bo’lishi va davlat ijtimoiy ximoya rejasiga badal to’lab borgan bo’lishi kerak. Ijtimoiy ximoya ta’minoti ancha moslashuvchan bo’lib, unda ishchilar ish beruvchilar sonidan qat’i nazar, o’z badallarini jamlab borish xuquqiga egalar. Ba’zi ishchilar, ayniksa davlat tashkilotlari ishchilari, ish beruvchining xam, ishchining xam belgilangan pensiya badallarini to’lab bormasligi uchun bunday ta’minotni olmaydilar<sup>2</sup>.

Endi jamg’arib boriladigan pensiya rejalarini (sxemalari)ning xorijda qanday amal qilishi bilan tanishib chiqsak. Bunday turdagi rejaga ko’ra, ish beruvchi o’zining xar bir ishchisi uchun o’zgarmas miqdorda va doimiy tartibda o’tkazmalar o’tkazib boradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida O’zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti tizimining investision faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Mamlakatimiz pensiya ta’minoti tizimining institusional asoslarini tubdan isloq qilish;
2. Jamg’arib boriladigan va xususiy pensiya fondlarini tashkil etishning xuquqiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
3. Pensiya jamg’armasi mablag’larining daromadlilagini oshirish orqali pensiya ta’minoti tizimiga sug’urta badali qamrovini kengaytirish va ixtiyoriy sug’urta badali to’lovini rag’batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Андреева Е. А. (2014) Корпоративное обеспечение в пенсионной системе России. URL [http://conf.srukras.ru/sites/pdf/d01/s32/s32\\_001.pdf](http://conf.srukras.ru/sites/pdf/d01/s32/s32_001.pdf)
2. OECD (2021), Pensions at a Glance 2021: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/ca401ebd-en>. P-173.
3. Войкова (2017) Развитие системы корпоративного пенсионного страхования на предприятии. Journal of Economy and Business, vol.11. p 27-31.
4. Белобабченко М.К. (2015) Условия стимулирования развития в России корпоративной пенсионной системы. Журнал российского права. № 8. –с. 35-39.

<sup>1</sup> Войкова (2017) Развитие системы корпоративного пенсионного страхования на предприятии. Journal of Economy and Business, vol.11. p 27-31.

<sup>2</sup> Белобабченко М.К. (2015) Условия стимулирования развития в России корпоративной пенсионной системы. Журнал российского права. № 8. –с. 35-39.



## BUDJETI TIZIMIDA HISOB-KITOBLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Norbekov Temurbek Shuhrat o'g'li  
O'zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tinglovchisi  
Tel: 94 537-84-04

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda daromadlarni budgetlararo oqilona taqsimlash yo'llari, xususan soliqlarni budgetlararo taqsimlash va budget daromadlarini maqsadli tarsfertlar shaklida taqsimlash yo'llari yoritilgan. Budget tizimi budgetlari ijrosi hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** budget, budgetlararo munosabat, budget taqchilligi, dotatsiya, davlat xaridlari, daromadlar va xarajatar smetasi.

Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida davlat budget siyosatida olib borilayotgan islohotlar budget tashkilotlarini budgetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun olib borilayotgan tadbirlar, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari ahamiyatining yuqori ekanligini ko'rsatib bermoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir. Har bir sohada bugungi shiddat bilan rivoj topib borayotgan integratsiyalashuv jarayonida sifatlari va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida davlat moliyasi tizimini mazmun va sifat jihatdan zamon talablari asosida takomillashtirish zarurati kelib chiqmoqda. Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimliklarni o'z vazifalarini amalga oshirishda moliyaviy dastak hisoblanib, ularning moliyaviy mustaqilligi ushbu hududlarni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hududlarni rivojlantirish borasida fikr yurita turib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy budgetlarning mablag'lari yetarli emas<sup>1</sup>”.

Budget hisobi davlat budgeti ijrosining buxgalteriya hisobidir. Budget hisobi davlat budgeti ijrosi bilan bog'liq bo'lgan hamma operatsiyalarni qamrab oladi va mazkur ijro jarayonida budgetning holatini tavsiflashni ta'minlaydi. Budget hisobi orqali xalq xo'jaligi hamma tarmoqlarining davlat budgeti bilan o'zaro aloqasi aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobi vositasida bank muassasalaridagi hisobvaraqlarda budgetning pul mablag'lari, daromadlari va xarajatlari, hisob-kitoblardagi mablag'lar, budget ijrosi jarayonida tashkil qilinadigan fondlar va zaxiralar hamda budget tashkilotlarining moddiy qiymatliklari aks ettiriladi. Budgetning daromadlari, xarajatlari va pul mablag'lari, budget ijrosi jarayonida ularning harakati hamda budgetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarning moddiy qiymatliklari budget hisobining bevosita obyektlari hisoblanadi.

Budget tashkilotlarida har bir olib borilayorgan munosabat yoki operatsiya jarayonida ma'lum bir maqsad yoki vazifa yotishi sir emas. Huddi shu kabi hududlararo munosabatlarning ham maqsadi va ushbu maqsadlardan kelib chiqqan vazifalari mavjuddir. Moliya organlari, g'aznachilik va uning hududiy bo'limlarida budget ssudalari hisobini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad foydalanuvchiga budget ssudalari bo'yicha asoslangan buxgalteriya axborotlarini shakkantirib berishdan iboratdir.

Respublikamizda markaziy darajada budgetlararo munosabatlar tizimi nisbatan barqarorlashtirilgan bo'lsa-da, mahalliy darajadagi budgetlararo munosabatlar tizimida echimini kutayotgan muammolar mavjuddir. Ayniqsa nisbatan iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarimizda, manzilli budget transfertlariga ehtiyojmand tuman va shaharlarimizning mavjudligi ushbu sohadagi islohotlarni tizimli ravishda kuchaytirishni talab qilmoqda.

Davlat budgeti ijrosi jarayonida alohida budgetlar bilan hisob-kitob munosabatlari vujudga kelishi mumkin. Bunday o'zaro hisob-kitoblar vujudga kelishi asosida har bir ma'muriy-hududiy bo'linmaning budgeti daromadlar va xarajatlar balansi tarzida tashkil topishi yotadi. Barcha xarajatlar rejalashtirilgan daromadlar bilan qoplanadi. Shuning uchun, budget tasdiqlangandan so'ng, qo'shimcha xarajatlar yuklansa, ulami ta'minlash uchun mablag' ham berilishi kerak

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104b.



bo‘ladi. Daromad beruvchi manbalar kamayganda ulami qoplash uchun mablag‘lar olinishi kerak bo‘ladi. Tasdiqlangan budgetda ko‘zda tutilmagan daromadlaming manbalari paydo bo‘lganda qo‘sishma hisoblangan daromad summasi yuqori budgetga berilishi kerak bo‘ladi”.

Budgetlar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarga summalarini o‘tkazish uchun asos bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari va farmoyishlaridan hamda budgetga o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilgan hokimiyatlar va boshqa organlarning qarorlaridan kelib chiqadigan o‘zgartirishlarga tegishli hududiy moliya organlari tomonidan tuzilgan ma‘lumotnoma-bildirishnomalar xizmat qiladi.

Budgetlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarga o‘tkazish kerak bo‘lgan summalarini aniqlash va ularni qaytarish muddatlarini belgilash hisob-kitobda qatnashayotgan yuqori moliya organi tomonidan amalga oshiriladi. Yuqori budget oldida o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha qarzlarni yuzaga kelish holatida, yuqori budgetlar navbatdagi oyning birinchi sanasiga, o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha mavjud qarz summalarini quyi budgetning hisobvaraqlaridan so‘zsiz tartibda qaytarib olishlari mumkin.

Budget tizimi quydagi prinsiplarga asoslanadi:

- budget tizimining yagonaligi;
- budget tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- budget tizimi budgetlarining balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- budget tizimi budgetlari daromadlarini proqnoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish.
- budget tizimi budgetlari mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- budget tizimi budgetlarining mustaqilligi;

Budget hisobi va nazoratini yuritishdan maqsad foydalanuvchilarga budget ijrosi jarayoni bo‘yicha to‘liq hamda aniq buxgalteriya va moliyaviy axborotlarni shakllantirib berishdan iborat.

Budget tasdiqlangandan so‘ng davlat va mahalliy soliqlar va daromadlar to‘g’risida, ma’muriy-xududiy bo‘linishdagi, korxonalar, tashkilotlar va xo‘jalik birlashmalarining bo‘ysunishidagi o‘zgarishlar, turli xildagi bo‘ysunishdagi qurilish obyektlari o‘rtasida kapital qo‘yilmalar limitlarini qaytadan taqsimlashdagi o‘zgarishlar bo‘yicha qabul qilingan yangi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari qabul qilinishi natijasida alohida olingan budgetlarga o‘zgartirishlar kiritilgan hollarda budget ijrosi jarayonida yuzaga keladigan budgetlar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha muomalalar amalga oshiriladi.

Mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantirishda bir budgetdan boshqa budgetga muayyan maqsadda yoki maqsadni ko‘rsatmagan holda mablag‘larning o‘tkazilishini o‘zida ifodalovchi budgetlararo transferlar muhim ahamiyatga ega. Demak, budgetlararo transferlardan foydalanish budgetni tartibga solishning asosiy maqsadi bo‘lgan mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minalashga qaratilgan.

Mazkur tezis orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, budget tashkilotlarining qarzlar bo‘yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblari umumiy budget tizimining borligini ta’minalaydi. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar, mulohazalar orqali budget tizimida qarzlar va o‘zaro hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshrilayotgan ishlar ko‘rib chiqildi. Ko‘rinib turibdiki daromadlar va xarajatlari o‘rtasidagi uzilishlar budget tashkilotlarida ko‘p kuzatilishi mumkin bo‘lgan jarayondir. Bu esa o‘z navbatida budget tashkilotlarining bir me’yorda ushlab turilishi, ularning barqarorligi ta’minalash uchun budgetlararo munosabatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 104b.
2. I.N.Qo‘ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.
3. M . Ostonaqulov. Budget hisobi. - T.: «Talqin», 2008. -4 2 4 bet.

1 M . Ostonaqulov. Budget hisobi. - T.: «Talqin», 2008. -4 2 4 bet.



## AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH

**Sotimov Fazliddin Qahramon o‘g‘li**  
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tингловчиси  
Tel: 93 677-35-15

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish masalalari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-4611-sonli qarori asosida moliyaviy hisobotlarni tizish tartibi, uning amaliyotda qo’llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarining amaliy tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Aksiyadorlik jamiyat, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xalqaro bozor, investitsiya.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo‘yicha amaliy ishlar davom etmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 24-fevraldagagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi qarori MHXSga o‘tishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur qaror bilan 2021-yildan boshlab MHXSga o‘tishi kerak bo‘lgan tashkilotlar ro‘yxati tasdiqlandi va shu ro‘yxatda belgilangan tashkilotlarning buxgalteriya xizmati bo‘limida MHXS ko‘nikmasiga ega bo‘lgan kamida uchta sertifikatlangan mutaxassis bo‘lishi lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Xalqaro standartlarga o‘tishning keng ko‘lamli va sifatli ijrosida kadrlar masalasi asosiy masala hisoblanadi. Shunday ekan, biznes subyektlarining xalqaro biznes tillashuvida o‘z nomidan axborotlar oqimini barcha uchun tushunarli hamda aniq shakkarda ochib berishga qodir bo‘lgan buxgalteriya hisobi, audit sohasining professional mahoratlari, shaxsiy tajribalar va intuitsiyalarda aldanmaydigan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa bo‘lmog‘i lozimdir.

Tahlillar natijasida shuni ko‘rshimiz mumkinki, MHXSga o‘tishning asosiy muammolar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

*birinchi*, davlat sektorida buxgalteriya hisoboti tushunchasi va uni MHXS qoidalari va tamoyillari asosida shakkantirishdagi muammolar mayjudligi;

*ikkinchi*, O‘zbekiston Respublikasi jahon iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan qismi sifatida xorijiy investorlar uchun tushunarli bo‘lgan yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarga muhtojligi;

*uchinchi*, amaldagi BHMSga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ba’zi jihatlari bo‘yicha chet ellik foydalanuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020-yil 24-fevraldagagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi.

Qarorga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- tijorat banklari;
- sug‘urta tashkilotlari;
- yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar.

Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari har yili hisobchilarning malakasini talab etiladigan darajada oshirishi, MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotning tegishli sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassis tomonidan imzolanishi, sertifikatlangan xodimlar mehnatini munosib rag‘batlantirish tizimini joriy etishi lozim.

MHXSni tatbiq etish bo‘yicha Yevropa davlatlarining tajribasini o‘rganish va ushbu jarayondagi muammolar va istiqbollarni adolatli baholash O‘zbekistondagi kompaniyalarning MHXSga

1 SH.Mirziyoyev, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son



muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish jarayoniga o‘tish davrida katta imkoniyat hisoblanadi.

MHXSga o‘tishning jahon tajribasiga asoslanib, quyidagi ijobiy jihatlarni kuzatish mumkin:

Birinchidan, axborot shaffofligini oshirish – shaffoflik xususiyati sifatlari moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta’minlaydi. Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, hisobdorlik oshishi – bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o‘rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiligin kamaytiradi. Natijada investorlar o‘z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo‘yicha to‘laqonli axborotga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, iqtisodiy samaradorlik oshishi – yagona moliyaviy tildagi hisobotlarni tahlil qilish asosida, investorlar kapitalni xalqaro miqyosda yo‘naltirish va risklarni kamaytirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bozor likvidligi yaxshilanishi va kapital sarfining pasayishi – moliyaviy axborotlarning batafsил yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlik bozor likvidligini oshiradi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi.

Beshinchidan, kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog‘ozlar bozorlarida savdolar ko‘lamining kengayishi – bo‘sh kapital mablag‘laridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning turli sohalari zarur kapital bilan ta’milnishi, kapital bozorlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, qimmatli qog‘ozlar bozorining muayyan mamlakat ichida shakllanishi va savdolar ko‘payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi. Bunda MHXS asosidagi hisobot ma’lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishi – milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning uchun milliy bozorda xorijiy investorlarga ijobiy investitsiya muhiti yaratilishi hamda investorlar huquqlari himoyalangan bo‘lishi lozim. MHXSning kapital bozor qatnashchilari tomonidan qabul qilinishi va unga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ochiq e’lon qilinishi ushbu jarayonlarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Yettingchidan, moliyaviy tahlilchilar prognozlaridagi aniqlik – moliyaviy axborotning sifati va qiyosiyligini ta’minlaydigan muhit moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va prognozlash tahlillari sifatini oshiradi. Ushbu tahlillar kapitalning samarali boshqaruvi va kelgusida kapital jalb etilishi yoki taqsimlanishi bo‘yicha to‘g‘ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Kapital bozorini rivojlantirish agentligi bu bo‘yicha yangi talablarni tasdiqladi. Unga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatları 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritishini tashkil etadi va moliyaviy hisobotni shu asosda tayyorlaydi. 2021 yil yakuniga qadar hisobchilarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud “CIPA”, “ASSA”, “SRA” va “DipIFR” sertifikatlaridan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatlari qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta’milashi lozim.

Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatları har yili hisobchilarning malakasini talab etiladigan darajada oshirishi, MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotning tegishli sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassis tomonidan imzolanishi, sertifikatlangan xodimlar mehnatini munosib rag‘batlantirish tizimini joriy etishi lozim.

MHXSga o‘tish va MHXSni belgilangan tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli tatbiq etish nafaqat kompaniya istiqbolini ta’minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, MHXSga o‘tish va MHXSni belgilangan tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli tatbiq etish nafaqat kompaniya istiqbolini ta’minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim.

<sup>1</sup> H. Irgashev, “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishi: yangicha yondashuv va imkoniyatlar” uza.uz 30.11.2020



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. SH.Mirziyoyev, PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 24.02.2020.
2. H. Irgashev, “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishi: yangicha yondashuv va imkoniyatlar” uza.uz 30.11.2020
3. Muzrapova Sh, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi, Tafakkur manzili, 2020.
4. Karimov A, Qo’ziyev I, Rahimov M Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Xalq so’zi, 2020.



## BUDJETI IJROSI TO'G'RISIDAGI HISOBOTLARNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunboyev Tohir G'ofur o'g'li

O'zbekiston Respublikasi bank

moliya akademiyasi tinglovchisi

Tel: 93 571-15-11

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi budget hisobi va axborotini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar yuzasidan fikr almashilgan. Budget tizimi budgetlari ijrosi hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** budget, budget ssudasi, budget taqchilligi, dotatsiya, davlat xaridlari, daromadlar va xarajatar smetasi.

Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida davlat budget siyosatida olib borilayotgan islohotlar budget tashkilotlarini budgetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun olib borilayotgan tadbirlar, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg' armalari ahamiyatining yuqori ekanligini ko'rsatib bermoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

Davlat budgetining barpo etilganligi, budget tizimi faoliyatini ta'minlashda budget loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budgeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishiga tegishli bo'lgan davlat hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda budget jarayoni ishtirokchilarining faoliyati samarali tashkil qilinganligi budget jarayoni munosabatlarini ta'minlab berdi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'naliislari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Budget ijrosi jarayonida Davlat budgeti mablag'lari va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari shakillanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budget mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budget taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat budgeti o'chovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat”<sup>1</sup>- deydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida. Shuningdek, budget tashkiloti qonunchilikka muvofiq budgetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'naliislari ko'rsatilgan holda budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budgetining g'azna ijrosiga o'tilishi, o'rta muddatli budget istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budget siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budget tashkilotlarida o'z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budgetdan tashqari mablag'larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Budget mablag'larini sarflanishini to'g'ri rejalshtirish, undan samarali foydalanish mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy ahvoliga bevosita ta'sir ko'rsatib bu budget tizimi hamda jarayonini qayta ko'rib chiqish ahamiyatini oshiradi. Avvalambor, budget jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, “Budget jarayoni- davlat budgetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budgeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'naliislari bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2017.



bilan tartibga solingan jarayon<sup>1</sup>”. Budget jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va budget tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning budget huquqlari bilan belgilanadi hamda budget jarayonining mazmunini belgilashda budgetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat budgetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim rol o'ynaydi.

Malikov T.S., Haydarov N.Hning ta'kidlashicha: Budget jarayoni, odatda, budget faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

- budget loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- budgetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- budgetni ijro etish;
- budgetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Budget jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini budget loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) budgetni ijro etishga (budget davri) va sakkiz oyga yaqini budgetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Budget jarayonini tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga rivoja qilinadi:

1. Yagonalik-yagona huquqiy baza, yagona budget tasnifi, O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti va hududlar budgetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo'lgan budget hujjatlari yagonaligi;

2. Har bir qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organi budget jarayonining mustaqilligi-o'z daromadlari manbalari va ulardan foydalanish yo'naliшlarini belgilash huquqi bilan ta'minlanadi;

3. Balans usuli-jami budgetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasida, shuningdek, moddiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida to'g'ri nisbatlarni belgilashni nazarda tutadi<sup>2</sup>.

Budget ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag'larni sarflashda iqtisod rejimiga rivoja qilinishidan, soliqli daromadlarning to'liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

Budget tashkilotlari faoliyati xarajatlari budget mablag'lari hisobiga moliyalanadi. Shu bilan birgalikda budgetdan tashqari mablag'lar manbalari bo'yicha shakllantiriladi. Budget tashkilotlari xarajatlari smeta doirasida xarajatlar iqtisodiy tasnifi bo'yicha byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Budget tashkilotlarining moliyaviy aktivlari ya'ni pul mablag'lari g'aznachilik va uning hududiy bo'limlarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda budget va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha alohida yuritiladi. Budget tashkilotlari nomoliyaviy aktivlariga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar moddiy zahiralar, material qiymatliklar va boshqalar kiradi. Daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayonida nomoliyaviy aktivlar hisobi belgilangan tartibda yuritiladi.

Budget tashkilotlari smetalar ijrosi jarayonida belgilangan vazifani bajarish bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar bilan hisoblashuvlarni amalga oshiradi va ular bo'yicha majburiyatlar yuzaga keladi.

Mazkur tezis orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotining ko'plab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan va ularning natijalari iqtisodiy ko'rsatkichlarga o'zining ta'sirini ko'rsatayotgan bir davrda davlat budgeti qonunchiligini mustahkamlab va takomillashtirib borish davlat moliyasi tizimining isloh qilishning asosiy yo'naliшlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Budget tizimida pul mablag'larini nazorat qilish borasida amaliy ishlar davom etmoqda va budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi faoliyatini tubdan isloh qilish orqali yanada yuqori sifatlari moliyaviy hisobotlarni tuzishga, shuningdek, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, budgetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son

2 Malikov T.S., Haydarov N.H. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma "IQTISOD MOLIYa", 2008, 84 b



## IQTISODIYOTNI INNOVATSIYALASHUVI SHAROITIDA INVISTITSIYALARING TUTGAN O'RNI

**Arziqulova Maftuna Abdug‘aniyevna,**  
Qashqadaryo viloyat, Ko‘kdala tumani  
79-maktaning geografiya va iqtisodiy  
bilim asoslari fani o’qituvchisi

### Annotatsiya

Iqtisodiyotbarqaror rivojlanishi va innovatsiyalarga moyilligini oshirish uchun invistitsiyalarning ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Mamlakatdagi investitsion muhitning jozibadorligi quyida keltiriladigan indikslarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Umuman olganda, mintaqalar raqobatbardoshligining umumiy indeksi to‘rtda quyidagi indekslar yig‘indisiga teng:

- Raqobatbardoshlik indeksi;
- Infratuzilmaning rivojlanish indeksi;
- Innovatsiyalar indeksi;
- Investitsion jozibadorlik indeksi.

Ushbu indikslar taraqqiy etishi iqtisodiyotning innovatsiyalashuviga xizmat qiladi

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, indiks, innovatsion iqtisodiyot, infratuzilma, strategiya, investitsion siyosat, tendensiya, raqobatbardoshlik

**Kirish:** Rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan boy tajribalar, amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan qarorlar va chora-tadbirlarning tub mohiyatini o‘rganish, yutuq va kamchiliklarini ilmiy jihatdan tanqidiy tahlil qilish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyoti uchun har tomonlama dastak vazifasini o‘taydi. Binobarin, xalqaro maydonda mavjud bo‘lgan boy tajribalar, zamonaviy tendensiyalar yildan-yilga takomillashib, o‘zgarib bormoqda. Xususan, investitsiyalar jalb etish, ularni eksport qilish, investorlarning manfaatlarini himoya qilish, innovatsion faollik va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog‘liq masalalar shular jumlasiga kiradi.

Mutaxassislarning fikricha, innovatsion iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, birinchi navbatda ularning geografik joylashuvi va resurslarning mavjudligiga bog‘liq.

**Mavzuning dolzarbliyi:** Mintaqalarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan nisbiy afzalliklar ya’ni, birinchidan, tabiiy boyliklarga “Neft-gaz, rangli metallar, paxta va boshqalar”, ikkinchidan, mintaqaga rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligiga, uchinchidan, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanganligi innovatsion salohiyatdan foydalanish darjasasi va boshqa omillar bilan tavsiflandi. Umuman olganda, mintaqalar raqobatbardoshligining umumiy indeksi to‘rtda quyidagi indekslar yig‘indisiga teng:

- Raqobatbardoshlik indeksi;
- Infratuzilmaning rivojlanish indeksi;
- Innovatsiyalar indeksi;
- Investitsion jozibadorlik indeksi.

Mintaqalarning raqobatbardoshlik indeksi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali hisoblanadi: aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi mintaqaviy maxsulot; mintaqada sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining rivojlanish darjasasi; tovar ayrboshlash xajmi; ishsizlik darjasasi va boshqalar.

Infratuzilmaning rivojlanish indeksini aniqlashda temiryo‘l va avtomobil yo‘llarining zichligi, telefon tarmog‘ining rivojlanish darjasasi, aholi jon boshiga uyali aloqalar soni va boshqalar hisobga olinadi.

Innovatsiyalar indeksi – tadqiqotlar soni, innovatsion g‘oyalar, loyihalar, ishlanmalar, texnologiyalar, talabalar, stajer-tadqiqotchi izlanuvchilar, katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar soni va boshqa indikatorlardan iborat.

Mintaqalar investitsiya bozori quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- yuridik shaxslarning bo‘sish pul mablag‘larini va aholining jamg‘armalarini mintaqalar investitsiya bozori orqali to‘liq harakatga keltirib mintaqalarning real iqtisodiyotiga jalb qilish;

- alohida hududlar iqtisodiyotining investitsion muhiti va undagi iqtisodiyot sub’ektlari sifat darajasini oshirish;

- investitsiyalar vositasida tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirish va boshqa ijobjiy omillarga erishish.



Mintaqalarda investitsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish, avvalo, mamlkat ichidagi jamg‘arish manbalarini faollashtirish va xorijiy kapitalni keng jalg qilishga yo‘naltirilishi lozim. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari doimiy tavsifga ega emas, ular mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining u yoki bu bosqichi va mo‘ljallanayotgan qayta o‘zgarishlarga bog‘liq holda almashib turadilar. Innovatsion siyosatning huquqiy va me’yoriy-qonuniy asoslarida innovatsion siyosatning konseptual asoslari – maqsad, vazifalari, yo‘nalishlari, ustuvor tomonlari, tamoyillari, amalga oshirish strategiyalari ko‘rsatib beriladi. Zamonaviy davlat innovatsiya siyosati innovatsiya subyektlarini, kichik va o‘rta innovatsion biznesni qo‘llab-quvvatlash, intellektual mulkni himoya qilish, innovatsiya sohasidagi tashqi faoliyatda milliy manfaatlar himoya qilinishini ta’minlashga qaratiladi. SHuning uchun innovatsiya siyosatini ishlab chiqishda quyidagi jihatlar hisobga olinishi zarur bo‘ladi:

1. innovatsion siyosatning maqsad, vazifalari, yo‘nalishlari, tamoyillari, strategiyasi va boshqalar;
2. innovatsion siyosatning amalga oshirish mexanizmi, ya’ni, amalga oshirish vositalari va dastaklari;
3. innovatsion siyosatning subyekti va obyekti, ularning tavsifi, markaziy va hududiy tuzilmalari; innovatsion siyosatning muddatlari va resurslari, kafolatlari.

**Xulosa:** Mamlakatimiz mintaqalarning raqobatbaroshligi, birinchi navbatda ularning geografik joylashuvi va resurslarning mavjudligiga bog‘liq. Mintaqalarning raqobatbardoshligi ko‘p jixatdan nisbiy afzalliklar ya’ni, birinchidan, tabiiy boyliklarga “Neft-gaz, rangli metallar, paxta va boshqalar”, ikkinchidan, mintqa rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligiga, uchinchidan, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanganligi innovatsion salohiyatdan foydalanish darajasi va boshqa omillar bilan tavsiflanadi.

Viloyatning turli mintaqalariga investitsiyalarni jalg qilish va bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, mineral xomashyo resurslarining mavjudligi va qishloq xo‘jaligi xomashyosini ishlab chiqish hajmiga bog‘liq. Faqatgina mintaqaning tabiiy-iqtisodiy, demografik, ekologik va boshqa shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olinadigan xorijiy kapitalni jalg qilishdan kutilayotgan samarani olish mumkin.

Viloyatda qulay investitsiyaviy, shu jumladan, ishbilarmonlik muhiti yaratilganligiga qaramasdan, xorijiy investitsiyalarni jalg etishda hududlar o‘rtasida nomutanosibliklar va muayyan kamchiliklar mavjud. Bular viloyat mintaqalari va hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi, shu jumladan, zaruriy ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilma bilan ta’minlashdagi farqlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, hududlarda investitsiya loyihalari tashabbuskorlarining yetarli darajada bilimga ega emasligi, iqtisodiy-tahliliy ishlarning yetarli darajada olib borilmasligi, salohiyatli mahalliy investorlarni aniqlash ishlaridagi sustkashlik, zamonaviy ma’lumot bazasidan unumli foydalanmaslik, imtiyozli xorijiy kredit liniyalari va xorijiy investitsiya loyihalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni mahalliy tadbirkorlarga o‘z vaqtida etkazib bermasligi xorijiy investitsiyalarni jalg qilish borasidagi kamchiliklar hisoblanadi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, diversifikatsiya qilish, sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ««2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022 y.
2. Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2010. - 728 bet.
3. Дуброва Т.А. Прогнозирование социально-экономических процессов. Статистические методы и модели: учеб. пособие / Т.А. Дуброва. – М.: Маркет DC, 2007. – 192 с.
4. [www.economy.uz](http://www.economy.uz)
5. [www.libruary.com](http://www.libruary.com)

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 9-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000